

**O‘zbekiston**  
**Metama‘lumot**  
**Bozor xizmatlari fizik hajm indeksi**

**0. Asoslar**

**0.1 Qonuniy muhit**

**0.1.1 Statistik ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik**

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Davlat statistika qo‘mitasi 2002 yil 12 dekabrda tasdiqlangan va 2012 yilda o‘rgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan “Davlat statistikasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq mustaqil ravishda o‘z faoliyatini yuritadi, ushbu qonun bilan davlat statistikasini tashkil etish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi, davlat statistikasi organlarining vakolatlarini belgilaydi hamda yagona statistika axboroti tizimi yuritilishi uchun normativ asos yaratadi.

2017 yil sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining vakolatlari, funksiyalari va tarkibini aniqlab beadigan yangi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida Nizom”i tasdiqlandi, ushbu nizom Davlat statistika qo‘mitasi Milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish, monitoring va nazorat qilishga mas‘ul va ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, analiz qilish va tarqatish bo‘yicha asosiy organ bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos yagona statistik uslubiyat bilan ta‘minlash vazifalarini bajaradi.

Davlat statistika qo‘mitasi, statistika ishlarini olib boruvchi boshqa davlat statistika organlari singari davlat statistika hisobotlarini, ma‘muriy hisobotlarni va davlat statistika kuzatuvlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan boshqa ma‘lumotlarni, shuningdek hisobotlaridagi tushuntirishlarni o‘z vakolatlari doirasida boshqa organlardan ta‘lab qilib olish huquqiga ega.

2017 yil 12 sentabrdagi 5054 sonli Prezident topshirig‘iga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma‘lumotlar XVJning kengaytirilgan umumiy ma‘lumotlar tarqatish tizimi (k-UMTT) doirasiga to‘g‘ri keladigan va muvofiqlashgan bo‘lishi kerak.

**0.1.2 Ma‘lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o‘rtasida ma‘lumotlar almashinuvi va muvofiqlartirish**

#### O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 9-moddasiga asosan Davlat statistikasi organlari Davlat statistikasi ishlari dasturini bajarishda davlat statistikasi organlariga ko‘maklashishi shart bo‘lgan boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar bilan statistika ishlarini hamkorlikda bajaradi. Davlat statistikasi organlari o‘zlarining vakolat doirasiga kiruvchi ayrim ishlarning boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar tomonidan bajarilishiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yo‘l qo‘yadi. Boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq davlat statistika kuzatuvlarini, shuningdek davlat statistikasi vakolatli organi bilan kelishilgan shakllarda idoraviy statistika kuzatuvlarini o‘tkazadi. Idoraviy statistika kuzatuvlarining ma‘lumotlari davlat statistikasi vakolatli organiga uning so‘roviga binoan taqdim etiladi.

Bundan tashqari, statistika kengashi davlat statistikasi vakolatli organi huzuridagi davlat statistikasining rivojlantirilishi, faoliyat ko‘rsatishi va muvofiqlashtirilishi muammolari bo‘yicha kollegial maslahat organi hisoblanadi. Statistika kengashi davlat statistikasining ayrim masalalarini ko‘rib chiqish uchun ekspert komissiyalari tayinlashi mumkin. Statistika kengashi va ekspert komissiyalarining yig‘ilishlariga ekspertlar taklif etilishi, yig‘ilishlarda vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar vakillarining davlat statistikasi masalalari bo‘yicha axborotlari eshutilishi mumkin. Statistika kengashining tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

#### 0.1.3 Alohida muxbirlarning ma‘lumotlari maxfiyligi

#### O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 7-moddasiga asosan Davlat statistikasi organlari yakka tartibdagi statistika ma‘lumotlarining maxfiyligini, davlat sirlari va yuridik shaxslarning tijorat sirlariga rioya etilishini, jismoniy shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning egasi mavhumlashtirilishini ta‘minlashga majburdirlar. Bundan tashqari 2017 yil sentabrda “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida Nizom”ga asosan, (13-band, §15) Davlat statistika qo‘mitasi maxfiylik masalalarini hal qilish bo‘yicha xavfsizlik choralarini ko‘radi, shu jumladan bank sirlarini ham (13-band, §11). Nihoyat, “Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 7-moddasiga asosan davlat organlari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining davlat statistika sohasidagi faoliyatiga aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi.

Davlat statistika qo‘mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik qasamiga rioya qilishlari, o‘zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma‘lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma‘lumot beriladi. Davlat statistika qo‘mitasining har bir xodimi uni bunday ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o‘z ichiga olgan shartnomaga qo‘l qo‘yishi shart.

#### 0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

#### O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Davlat statistika qo‘mitasi sifat menejmenti va metama‘lumotlar boshqaruvini

ta'minlaydigan statistika biznes-jarayonlarini ifodalovchi BMT ning Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining (UNECE) Statistika biznes jarayonlar umumiy modelini yuritadi.

Respondentlarga ma'lumot yetkazib berish maqsadida Davlat statistika organlari o'z vakolatlari doirasida moliya, bojxona, soliq organlari, banklar va boshqa idora va xizmatlar, yuridik shaxslar va ularning vakolatxonalari filiallaridan, jismoniy shaxslardan, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlardan Davlat statistika kuzatuvlarini yuritish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni so'rashga va olishga, shuningdek, statistik maqsadlarda foydalaniladigan hisobotlarga tushuntirishlar olishga huquqiga ega.

Bundan tashqari, davlat statistikasi korxonalar va muassasalar statistik ma'lumotlarining ishonchliligini tekshiradi, olingan statistik ma'lumotlarni to'liqligi ob'ektivligini ekspertizadan o'tkazadi va buzilganligi aniqlangan hollarda ularni to'g'rilash uchun zarur ko'rsatmalar beradi va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritadi.

## 0.2 Resurslar

### 0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnik, elektron hisoblash va moliyaviy resurslar (tavsiya etiladigan kategoriya)

Bozor xizmatlari fizik hajm indeksini shakllantirish bilan Markaziy apparatda 14 xodim, hududiy statistika organlarida 6 nafardan xodimlar shug'ullanishadi. Xizmatlar sohasi statistikasi bo'yicha statistik ma'lumotlarni shakllantirish bo'yicha qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun xodimlar soni yetarli.

Barcha xodimlar oliy ma'lumotga ega va 2 yilda kamida 1 marta Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Kadrlarni qayta tayyorlash va statistika tadqiqotlari markazida qo'uv kurslarida malaka oshirishadi.

Har bir ish joyi lokal tarmoqqa ulangan shaxsiy kompyuterlar bilan ta'minlangan.

Dasturiy ta'minot bevosita Davlat statistika qo'mitasida ishlab chiqiladi, bu zarurat tug'ilganda mavjud va yuzaga keladigan vazifalarga muvofiq uni yangilash va o'zgartirish imkonini beradi.

Taqdim etilgan moliyaviy resurslar Davlat statistika ishlari dasturida xizmatlar sohasi statistikasi bo'yicha nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun yetarli.

## 1. Yaxlitlik

### 1.1 Kasbiy mahorat

#### 1.1.1 Statistikaning xolisligi

##### O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 7-moddasiga asosan, Davlat statistikasining asosiy prinsiplari aniqlik, xolislik va beg'arazlikdir. Bundan tashqari, “O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risidagi Nizomi”da (13-modda, §6) Davlat statistika qo'mitasining prinsiplari beg'arazlikni ta'minlashi belgilanga.

#### 1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

##### O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 14-moddasiga muvofiq statistika ma‘lumotlaridan davlat manfaatlarini ko‘zlab va ilmiy maqsadlarda, jamoatchilikni xabardor etish, bunday ma‘lumotlardan foydalanuvchilarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash uchun foydalaniladi. Davlat statistikasi organlari yuridik shaxslardan, ularning vakolatxonalarini va filiallaridan, jismoniy shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlardan olgan birlamchi statistika ma‘lumotlari faqat jamlanma statistika ko‘rsatkichlarini tayyorlashda statistika maqsadlarida ishlatiladi hamda jamlanma holatda va egasi mavhumlashtirilgan tarzda e‘lon qilinadi. Tarkibida davlat siri va tijorat sirlari bo‘lgan statistika ma‘lumotlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim etiladi.

### 1.1.3 Statistika ma‘lumotlarni noto‘g‘ri talqin qilish yoki undan noto‘g‘ri foydalanish bo‘yicha sharh

#### O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Davlat statistika qo‘mitasi statistik ma‘lumotlarni noto‘g‘ri talqin qilish va statistik ma‘lumotlardan noto‘g‘ri foydalanilganda o‘z izohini berishi mumkin.

## 1.2 Shaffoflik

### 1.2.1 Statistika ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish nizomi va tartibini oshkor qilish

#### O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 4-moddasiga binoan, Davlat statistikasining asosiy prinsiplari qulaylik, ochiq-oydinlik va oshkorlikdir. Statistika ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish bo‘yicha shartlar O‘zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun va qarorlarda keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. Shunday qilib, “Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonun (2002 yil) va Qo‘mitaning 368-sonli qarori veb-saytga ([www.stat.uz](http://www.stat.uz)) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida ham chop etiladi va normativ-huquqiy xujjatlar bazasiga (norma), shuningdek Adliya vazirligining [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz) manzilida joylashgan ma‘lumotlar bazasida ham mavjud.

### 1.2.2 Hukumatning statistik ma‘lumotlarga e‘lon qilinishidan oldin ko‘rishning ichki imkoniyati

#### O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Hukumat Davlat statistika qo‘mitasining ma‘lumotlarini e‘lon qilinish vaqtidan oldin ko‘rish imkoniyatiga ega emas. Statistika ma‘lumotlarni tarqatishda Davlat statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi (“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 5-moddasi). Faqat qo‘mita Raisi statistik ma‘lumotlar e‘lon qilinishidan oldin ularni ko‘ra oladi.

### 1.2.3 Statistika ma‘lumotlarni belgilash

#### O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Jamiyatga e‘lon qilinayotgan ma‘lumotlar ma‘lumot ishlab chiqaruvchi agentlik tomonidan aniq belgilanadi (logotip va izohlar).

### 1.2.4 Uslubiyatlar, dastlabki ma'lumotlar va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida avvaldan xabar berish.

#### O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga jiddiy o'zgartirishlar kiritishdan oldin Davlat statistika qo'mitasi jamaotchilikni oldindan ogohlantiradi. Davlat statistika qo'mitasi o'z veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi.

### 1.3. Axloq me'yorlari

#### 1.3.1 Xodimlarning axloqi bo'yicha ko'rmatma

#### O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik qasamiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimiga tayinlanayotganda majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Davlat statistika qo'mitasi xodimi uni bunday ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

## 2. Metodologiya

### 2.1 Konsepsiya va ta'riflar

#### 2.1.1 Konsepsiya va ta'riflar (talab etiladigan kategoriya)

Bozor xizmatlari fizik hajm indeksini hisoblashda Davlat statistika qo'mitasining 2019 yil 8 maydagi 21-son qarori bilan tasdiqlangan "Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan), shu jumladan qishloq joylarida ko'rsatilgan xizmatlarning statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom" uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Bozor xizmatlari fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli, ya'ni bozor xizmatlari ishlab chiqarish dinamikasi ma'lumotlaridan foydalanib, soddalashtirilgan iqtisodiy faolyat turlari bo'yicha individual indekslarni bosqichma-bosqich agregatsiyalash orqali amalga oshiriladi.

Bozor xizmatlari fizik hajm indeksi ma'lum bir vaqt davomida xizmatlar hajmini o'zgarishini aks ettiruvchi o'rtacha qiymat hisoblanadi.

Agregatsiyalash uchun og'irlik o'lchovi sifatida joriy yildagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha solishtirma narxlardagi xizmatlar hajmidan foydalaniladi.

### 2.2 Statistik qamrov

#### 2.2.1 Statistik qamrov (talab etiladigan kategoriya)

##### 2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Ma'lumotlarning geografik qamrovi Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahrini o'z ichiga oladi.

Umumiy xizmatlar hajmi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha quyidagi sub'ektlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarni o'z ichiga oladi:

- a) yirik korxonalar;
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar;
- v) fermer xo'jaliklari, notijorat tashkilotlar;

g) yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi.

#### 2.2.1.2 Statistik qamrovdan istisnolar

Istisnolar yo'q

#### 2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Yashirin iqtisodiyot hisobga olinmaydi.

### 2.3 Klassifikatsiya/sectorlar bo'yicha bo'lish

#### 2.3.1 Klassifikatsiya/sectorlar bo'yicha bo'lish (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Faoliyat turlari bo'yicha taqsimlash Yevropa Ittifoqi doirasida foydalaniladigan Iqtisodiy faoliyat tasniflagichiga (NACE-2) ekvivalent bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichining (IFUT.2) xizmatlarga tegishli qismi G-S seksiyalari bo'yicha amalga oshiriladi.

Hisobning asosiy o'lchovi – institutsional birliklar.

### 2.4 Hisobga olish asosi

#### 2.4.1 Baholash (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Agregatsiyalash uchun og'irlik o'lchovi sifatida joriy yildagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha solishtirma narxlardagi xizmatlar hajmidan foydalaniladi.

#### 2.4.2 Hisobga olish asosi (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Yuridik shaxslar bo'yicha ma'lumotlar hisoblangan prinsip asosida shakllantiriladi.

#### 2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartiblari (tavsiya etiladigan kategoriya)

## 3. Aniqlilik va ishonchlik

### 3.1 Boshlang'ich ma'lumotlar

#### 3.1.1 Boshlang'ich ma'lumotlarni yig'ish dasturlari (talab etiladigan kategoriya)

Korxonalarining statistik kuzatuvlarini o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 25 sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 274-son qaroriga muvofiq tizimli va doimiy yangilab boriladigan Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri asos bo'lib xizmat qiladi.

Bozor xizmatlari fizik hajm indeksini hisoblash uchun axborot manbai bo'lib, davlat statistika hisobotlarining birlamchi statistik ma'lumotlari va tanlanma kuzatuvlar asosida ko'rsatilgan xizmatlar hajmini baholash hisoblanadi.

### 3.1.2 Ta'riflar, statistik qamrov, klassifikatsiyalar, baholashlar va boshlang'ich ma'lumotlarni hisobga olish davri (tavsiya etiladigan kategoriya)

Bozor xizmatlari fizik hajm indeksi ma'lum bir vaqt davomida xizmatlar hajmining o'zgarishini aks ettiruvchi o'rtacha qiymat hisoblanadi.

Agregatsiyalash uchun og'irlik o'lchovi sifatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha solishtirma narxlardagi xizmatlar hajmidan foydalaniladi.

Statistik qamrov – iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari hajmi yirik korxonalar bo'yicha oylik (yillik hisobotlar bo'yicha ma'lumotlar aniqlashtiriladi), kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha choraklik baholash (yillik hisobotlar bo'yicha ma'lumotlar aniqlashtiriladi), fermer xo'jaliklari, notijorat tashkilotlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi.

Bozor xizmatlari hajmi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichiga (IFUT.2) muvofiq xizmatlarga tegishli qismining (G-S seksiyalari) barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha shakllantiriladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlarning statistik hisobi xizmatlar ko'rsatilgan vaqtdagi (amaldagi narxlarda) hisoblangan qiymat asosida amalga oshiriladi.

Bozor xizmatlari fizik hajm indeksi deflyatorlash usuli, ya'ni bazis va joriy davrlardagi ma'lumotlardan foydalangan holda soddalashtirilgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha individual indeksni bosqichma-bosqich agregatsiyalash orqali hisoblanadi.

Ma'lumotlarni nashr qilish: oylik – hisobot davridan keyin 15 ish kuni, yillik – hisobot davridan keyin 6 oydan oshmasdan.

### 3.1.3 Boshlang'ich ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi (tavsiya etiladigan kategoriya)

Ma'lumotlarni yig'ish dasturi Davlat statistika ishlari dasturi bilan tartibga solinadi.

Chiquvchi ma'lumotlar har oyda 15 sanada tayyorlanadi. Yillik - hisobot davridan keyin 6 oydan oshmasdan.

## 3.2 Boshlang'ich ma'lumotlarni baholash

### 3.2.1 Boshlang'ich ma'lumotlarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

### 3.3 Statistika usullari

#### 3.3.1 Boshlang'ich ma'lumotlar bilan ishlashda statistika usullari (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador kategoriya sifatida talab etiladigan kategoriya)

Xizmatlar fizik hajm indeksini hisoblash uchun bazis va joriy davrlardagi xizmatlar hajmi solishtirma narxlarda taqqoslanib, soddalashtirilgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha individual indekslarni bosqichma-bosqich agregatsiyalashdan foydalaniladi.

#### 3.3.2 Boshqa statistika jarayonlar (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Hisob-kitoblarda soliq organlari, xizmatlar ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarning tanlanma kuzatuv ma'lumotlaridan foydalaniladi.

### 3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

#### 3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash (tavsiya etiladigan kategoriya)

#### 3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

#### 3.4.3 Yakuniy statistika ma'lumotlardagi farqlarni va boshqa muammolarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Avval nashr qilingan ma'lumotlarda nomuvofiqliklar aniqlangan hollarda mazkur ma'lumotlarga keyingi nashrlarda o'zgartirish kiritiladi.

### 3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

#### 3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish (tavsiya etiladigan kategoriya)

2016 yildan G-S seksiyalari bo'yicha IFUT (2-tah) tasniflagichiga o'tilganligi munosabati bilan 2010-2015 yillar uchun yillik hajmlar va bozor xizmatlari fizik hajm indekslari qayta hisob-kitob qilindi.

## 4. Amaliy yaroqlilik



## 4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

### 4.1.1 Davriylik (talab etiladigan kategoriya)

Bozor xizmatlari fizik hajm indeksini hisoblash har oyda amalga oshiriladi, aniqlashtirilgan ko'rsatkichlar - yillik hisobot ma'lumotlari bo'yicha.

### 4.1.2 O'z vaqtidaligi (talab etiladigan kategoriya)

Bozor xizmatlari fizik hajm indeksi 15 kuni nashr etiladi, yillik ko'rsatkichlar – hisobot davridan keyin 6 oydan oshmasdan.

## 4.2 Qiyosiylik

### 4.2.1 Ichki qiyosiylik (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Bozor xizmatlari fizik hajm indeksi bo'yicha ma'lumotlar “O'zbekiston raqamlarda”, “O'zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi” kabi statistik to'plamlarda solishtirilgan.

### 4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik (tavsiya etiladigan kategoriya)

2010 yildan vaqt qatorlari ma'lumotlari O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining veb-sahifasida taqdim etilgan. (<http://stat.uz/ru>)

### 4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik (tavsiya etiladigan kategoriya)

## 4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

### 4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali (talab etiladigan kategoriya)

Oylik bozor xizmatlari fizik hajm indeksleri bo'yicha ma'lumotlar qayta ko'rib chiqilmaydi. Yillik indekslar bo'yicha ma'lumotlar Davlat statistika ishlari dasturida nazarda tutilgan muddatlarda aniqlashtiriladi.

### 4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni aynan shu toifasi bo'yicha belgilash (talab etiladigan kategoriya)

Yakuniy ma'lumotlar tarqatiladi

### 4.3.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni tahlil qilish va o'rganish bo'yicha olingan natijalarni tarqatish (tavsiya etiladigan kategoriya)

## 5. Qulayligi

### 5.1 Ma'lumotlar

#### 5.1.1 Statistik ma'lumotlarni taqdim etish shakli (talab etiladigan kategoriya)

Bozor xizmatlari fizik hajm indeksi to'g'risidagi ma'lumotlar yil boshidan hisobot davri uchun tarqatiladi.

Bozor xizmatlari fizik hajm indeksi xizmatlar bo'yicha jami va G – S seksiyalariga taalluqli bo'lgan faoliyat turlari bo'yicha hisoblanadi.

Statistik nashrlarda bozor xizmatlari fizik hajm indeksi bo'yicha ma'lumotlar jadvallar va grafiklar ko'rinishida taqdim etiladi.

#### 5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari (talab etiladigan kategoriya)

##### 5.1.2.1 Bosma shaklida – Yangi nashrlar

“O‘zbekiston raqamlarda”, “O‘zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi”.

##### 5.1.2.2 Bosma shaklida – Haftalik byulletenlar

Mavjud emas.

##### 5.1.2.3 Bosma shaklida – Oylik byulletenlar

Mavjud emas.

##### 5.1.2.4 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

“O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati”,  
“O‘zbekiston Respublikasining statistik yillik to‘plami”

##### 5.1.2.5 Bosma shaklida – Boshqalar

Foydalanuvchilarning maxsus so‘rovi bo‘yicha jadallar

##### 5.1.2.6 Elektron shaklda – Onlayn byulletenlar yoki ma'lumotlar

Ma'lumotlar “O‘zbekiston Respublikasining statistik yillik to‘plami” nashri tarkibida joylashtirilgan.

##### 5.1.2.7 Elektron shaklda – Boshqalar

Foydalanuvchilarning maxsus so‘rovi bo‘yicha jadallar

### 5.1.5 So'rov bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish (tavsiya etiladigan kategoriya)

O'zbekiston Respublikasining "Davlat statistikasi to'g'risida"gi Qonuni, "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida"gi Nizom, Statistik ma'lumotlarni tayyorlash va tarqatish bo'yicha ishlarni tashkil etish Reglamenti va boshqa huquqiy hujjatlarga asosan statistik ma'lumotlar fydalanuvchilarga ularning so'rovlari bo'yicha o'rnatilgan tartibda taqdim etiladi. Statistik axborotlarni tarqatish yuridik va jismoniy shaxslarning yozma murojaati bo'yicha chop etilgan yoki elektron jadvallar ko'rinishida, statistik to'plamlar, byulletenlar, tezkor-axborot hamda tomonlarning o'zaro axborot almashinuvi to'g'risidagi kelishuviga asosan ma'lumot taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

### 5.2 Metama'lumotlar

#### 5.2.1 Konsepsiyalar, statistik qamrov, klassifikatsiyalar, hisobga olish asosi, ma'lumotlar manbasi va statistik usullar to'g'risidagi hujjatlarni tarqatish (talab etiladigan kategoriya)

Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-saytida statistik ko'rsatkichlarni shakllantirish va hisoblash bo'yicha uslubiy nizomlar joylashtiriladi.  
(<https://lib.stat.uz/ru/methodological-materials/services-sector>)

## 9. Rejalar

### 9.1 Oxirgi

#### 9.1.1 Takomillashtirish rejaları – Oxirgi takomillashtirishlar

### 9.2 Umumiy

#### 9.2.1 Takomillashtirish rejaları – Qisqa muddatlilari

#### 9.2.2 Takomillashtirish rejaları – O'rta muddatlilari

"Ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan), shu jumladan qishloq joylarida ko'rsatilgan xizmatlarning statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom"ni MHT 2008 tavsiyalari asosida takomillashtirib borish.  
2018 yildan boshlab diskret choraklar bo'yicha bozor xizmatlari fizik hajm indeksini hisoblashni joriy etish.

### 9.3 Moliyaviy

#### 9.3.1 Takomillashtirish rejaları – Texnik yordam/moliyalashtirishga ehtiyojlar – Qisqa muddatli

Moliyashtirish Davlat statistika ishlari dasturi doirasida ta'minlanadi.

9.3.2 Takomillashtirish rejalari - Texnik yordam/moliyashtirishga ehtiyojlar– O'rtamuddatli

Moliyashtirish Davlat statistika ishlari dasturi doirasida ta'minlanadi.

## Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

	Aloqa bog'lash uchun shaxs <u>1</u>
<i>F.I.O.:</i>	Umarov Akmal Rustamovich
<i>Lavozim:</i>	Zamestitel nachalnika Upravleniya - nachalnik otdela
<i>Bo'linma:</i>	
<i>Bo'lim:</i>	Otdel formirovaniya svodnoy analiticheskoy informatsii i indikatorov programm razvitiya sferы uslug
<i>Departament:</i>	
<i>Idora:</i>	Gosudarstvennyy komitet Respubliki Uzbekistan po statistike
<i>Manzil (1 satr):</i>	prospekt Mustakillik 63
<i>Manzil (2 satr):</i>	
<i>Shahar/region:</i>	Tashkent
<i>Mamlakat:</i>	Uzbekistan
<i>Pochta indeksi:</i>	100170
<i>Telefon: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam</i>	998 71 2308061
<i>Faks: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam</i>	
<i>Elektron manzil:</i>	
	Aloqa bog'lash uchun shaxs <u>2</u>
<i>F.I.O.:</i>	Umarov Akmal Rustamovich
<i>Lavozim:</i>	Zamestitel nachalnika Upravleniya - nachalnik otdela
<i>Bo'linma:</i>	
<i>Bo'lim:</i>	Otdel formirovaniya svodnoy analiticheskoy informatsii i indikatorov programm razvitiya sferы uslug
<i>Departament:</i>	
<i>Idora:</i>	Gosudarstvennyy komitet Respubliki Uzbekistan po statistike
<i>Manzil (1 satr):</i>	prospekt Mustakillik 63
<i>Manzil (2 satr):</i>	
<i>Shahar/region:</i>	Tashkent
<i>Mamlakat:</i>	Uzbekistan
<i>Pochta indeksi:</i>	100170
<i>Telefon: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam</i>	998 71 2308061
<i>Faks: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam</i>	
<i>Elektron manzil:</i>	